

**Qosimova Fazilat Sherzod Qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

**Ilmiy rahbar: Shermuxamedov B.U., i.f.d., prof.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola fintex (moliyaviy texnologiyalar) sanoatining jahon moliyaviy xizmatlar tizimiga korsatayotgan ta'sirini keng qamrovli tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida 2019-2024-yillar davridagi global fintex bozori ko'rsatkichlari, sarmoyaviy oqimlar, foydalanuvchilar bazasining kengayishi hamda turli mintaqalar bo'yicha farqlanishlar o'rganilgan. Maqolada fintexning moliyaviy inklyuzivlikka, to'lov tizimlari samaradorligiga, kredit resurslariga kirish imkoniyatlariga va moliyaviy barqarorlikka ko'rsatadigan ijobiy hamda salbiy ta'sirlari bayon etilgan. O'zbekiston misolida mahalliy fintex ekotizimining rivojlanish holati, 2020 -2023-yillardagi statistik ko'rsatkichlar tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fintex texnologiyalari moliyaviy xizmatlar samaradorligini o'rtacha 23 -40% ga oshirib, xarajatlarni esa 30 -50% ga kamaytirish salohiyatiga ega.

**Kalit so'zlar:** fintex, moliyaviy texnologiyalar, raqamli to'lovlar, moliyaviy inklyuzivlik, neo-banklar, blockchain, open banking, moliyaviy xizmatlar.

**Аннотация:** Данная статья посвящена всестороннему анализу влияния индустрии финтех (финансовых технологий) на глобальную систему финансовых услуг. В рамках исследования изучены показатели мирового рынка финтех за период 2019-2024 гг., инвестиционные потоки, расширение пользовательской базы, а также региональные различия. В статье описываются положительные и отрицательные эффекты воздействия финтеха на финансовую инклюзивность, эффективность платежных систем, доступность кредитных ресурсов и финансовую стабильность. На примере Узбекистана проведен анализ состояния развития отечественной финтех-экосистемы и статистических показателей за 2020 -2023 гг. Результаты исследования показывают, что финтех-технологии способны повысить эффективность финансовых услуг в среднем на 23 -40% при одновременном снижении затрат на 30 -50%.

**Ключевые слова:** финтех, финансовые технологии, цифровые платежи, финансовая инклюзивность, необанки, блокчейн, открытый банкинг, финансовые услуги.

**Abstract:** This article is dedicated to a comprehensive analysis of the impact of the fintech (financial technology) industry on the global financial services system. Within the scope of the study, global fintech market indicators, investment flows, user base expansion, and regional variations for the period of 2019 -2024 are examined. The paper outlines the positive and negative effects of fintech on financial inclusion, the efficiency of payment systems, access to credit resources, and financial stability. Taking Uzbekistan as a case study, an analysis of the development status of the domestic fintech ecosystem and statistical indicators for 2020 -2023 was conducted. The research findings indicate that fintech technologies have the potential to increase the efficiency of financial services by an average of 23 -40% while reducing costs by 30 -50%.

**Keywords:** fintech, financial technologies, digital payments, financial inclusion, neo-banks, blockchain, open banking, financial services.

## **Kirish**

Moliya sohasi tarixi davomida inqilobiy o'zgarishlarni boshdan kechirgan bo'lsa-da, XXI asrning ikkinchi o'n yilligida yuz bergan raqamli texnologiyalar to'laqini bu sohani mutlaqo yangi bosqichga olib kirdi. "Fintex" (inglizcha: financial technology) atamasi dastlab 1972-yilda Bettinger tomonidan bank modellari kontekstida qo'llangan bo'lsa ham [1], zamonaviy ma'noda ushbu tushuncha 2008-yilgi global moliyaviy inqirozdan so'ng shakllangan yangi moliya-texnologiya paradagmasini ifodalaydi [2]. Fintex texnologiyalari bugungi kunda an'anaviy bank va moliya institutlarining paradigmatic qayta ko'rib chiqilishini talab qilmoqda. Global fintex bozori 2023-yilda 294 milliard dollardan oshib, 2028-yilga kelib 698 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda [3]. Raqamli to'lovlar, neo-banklar, peer-to-peer kreditlash, robo-maslahatchilar, insurtech va blockchain texnologiyalari bularning barchasi moliyaviy xizmatlar landshaftini tubdan o'zgartirmoqda. Shu bilan birga, fintex rivojlanishi bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda: kiberxavfsizlik tahdidlari, tartibga solish tizimining nomuvofiqligi, moliyaviy barqarorlik risklari va ma'lumotlar maxfiyligi masalalari [4].

## **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Schueffel (2016) fintexni "yangi moliyaviy xizmatlarni yetkazib berish yoki mavjud xizmatlarni yangicha usulda ko'rsatish maqsadida texnologik innovatsiyalardan foydalanadigan yangi moliyaviy sanoat" deb ta'riflaydi [5]. Arner, Barberis va Buckley (2015) esa fintexning evolyutsiyasini uch bosqichda ko'rib chiqadi: Fintex 1.0 (1866 -1967) moliyaviy globallashuv infratuzilmasi; Fintex 2.0 (1967 -2008) an'anaviy raqamli moliya xizmatlari; Fintex 3.0 (2008-yildan hozirgi kunga qadar) inqirozdan keyingi raqamli moliya inqilobi. Gomber va boshq. (2018)

fintexni innovatsiya, disruptsiya va transformatsiya kuchlari kesishmasida joylashgan hodisa sifatida tavsiflaydi. Tadqiqotchilar fintexning bank sektoriga ta'sirini uch ko'rinishda ko'rib chiqadi: raqobatchilik, hamkorlik va gibrid modellar [6]. World Bank (2024) ma'lumotlariga ko'ra, jahon aholisining taxminan 1.4 milliarddan ortiq qismi hali ham rasmiy moliya tizimidan chetda qolmoqda. Fintex texnologiyalari, xususan mobil pulkontlar va agent-banking tizimlari, ushbu masalani hal etishda muhim rol o'ynamoqda [7]. Ozili (2018) raqamli moliyaning moliyaviy inklyuzivlik va barqarorlikka ta'sirini o'rganib, raqamli moliya xizmatlarining kengayishi moliyaviy barqarorlikni oshirganligi hamda moliya sektorini yanada samarali va inkluziv qilganligi haqida dalillar taqdim etadi [8]. Biroq tadqiqotchi raqamli moliyaning kiberxavfsizlik va ma'lumotlar maxfiyligiga bog'liq risklarini ham ta'kidlaydi.

### **Fintexning iqtisodiy samaradorligiga ta'siri.**

Philippon (2016) to'lov xizmatlari xarajatlarini tarixiy tahlil qilish orqali fintex texnologiyalarining moliyaviy vositachilik xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish imkoniyatini ko'rsatib bergan [9]. Uning hisob-kitoblariga ko'ra, raqamli texnologiyalar orqali moliyaviy vositachilik xarajatlari 1 foiz punktga kamayishi mumkin bo'lib, bu yiliga yuz milliardlab dollar tejashga to'g'ri keladi. IMF (2023) tahlili shuni ko'rsatadiki, fintex moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish va moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish uchun katta imkoniyatlar taqdim etsada, bir vaqtning o'zida tizimsiz risklarni ham kuchaytirishi mumkin [10].

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqolada miqdoriy va sifat tahlili, qiyosiy tahlil hamda statistik umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotda birlamchi ma'lumotlar sifatida O'zbekiston Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari [11], ikkilamchi ma'lumotlar sifatida esa Jahon banki, IMF, Ernst & Young, McKinsey & Company va KPMG hisobotlari qo'llanilgan. Ma'lumotlar 2024-yilning birinchi yarim yilligida yig'ilgan bo'lib, ularning dinamikasi va o'zaro bog'liqligi tavsifiy-statistik yondashuv asosida tahlil qilingan.

### **Tahlil va natijalar.**

#### **Global fintex bozori dinamikasi.**

Global fintex bozori so'nggi besh yilda ajoyib sur'atlarda o'sdi. Quyidagi jadval va diagrammalar ushbu tendensiyalarni yaqqol ko'rsatib beradi:

#### **1-Jadval.**

#### **Global fintex bozorining asosiy ko'rsatkichlari (2019 -2028).<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Statista (2025), Ernst & Young (2024) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.


Yil	Bozor hajmi (mlrd \$)	O'sish sur'ati (%)	Foydalanuvchilar (mln)	Qabul koeffitsienti (%)
2019	127.8	-	1,900	33
2020	149.4	+16.9	2,300	46
2021	179.9	+20.4	2,750	54
2022	226.7	+26.0	3,100	64
2023	294.0	+29.7	3,650	72
2024	340.1	+15.7	4,100	76
2028 (prognoz)	698.5	CAGR: 15.9	5,800	88

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, global fintex bozori 2019-yildagi 127.8 milliard dollardan 2023-yilda 294 milliard dollarga yetib, besh yil ichida 2.3 baravar oshgan. Foydalanuvchilar qabul koeffitsienti esa 33%dan 72%ga ko'tarilgan, bu esa moliyaviy xizmatlar demokratlashuvining aniq isbotidir.


## 1-Diagramma.

Fintex texnologiyalarini global qabul koeffitsienti dinamikasi (%).

Yillar bo'yicha fintexdan foydalanish darajasi.<sup>2</sup>



<sup>2</sup> Ernst & Young Global FinTech Adoption Index (2024).



## Fintex sohalari bo'yicha tahlil.

Fintex sanoatining turli segmentlari o'ziga xos rivojlanish sur'atlariga ega. 2-jadval asosiy soha ko'rsatkichlarini qiyosiy ko'rsatib beradi:

2-Jadval.

### Fintex sohalari bo'yicha bozor ulushi va o'sish sur'atlari (2023).<sup>3</sup>

Fintech sohasi	2023 yil ulushi (%)	O'sish sur'ati (%)	Asosiy namoyandalar
Raqamli to'lovlar	38.2	+22.4	PayPal, Stripe, Alipay
Neo-banklar	18.7	+34.1	Revolut, N26, Chime
Kreditlash platformalari	15.3	+19.8	LendingClub, Prosper
Crypto/Blockchain	12.1	+41.6	Coinbase, Binance
InsurTech	8.4	+28.3	Lemonade, Oscar
WealthTech / RegTech	7.3	+31.2	Betterment, Wealthfront

<sup>3</sup> PricewaterhouseCoopers (2024), KPMG (2024) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, raqamli to‘lovlar (38.2%) eng yirik segment bo‘lib qolmoqda. Biroq eng tez o‘sovchi soha Crypto/Blockchain (41.6%) va neo-banklar (34.1%) hisoblanadi. InsurTech (28.3%) ham jadal rivojlanmoqda, bu sug‘urta sohasida raqamli transformatsiyaning tezlashayotganini ko‘rsatadi.

Fintexga global sarmoyalar 2021-yilda rekord ko‘rsatkich 250 milliard dollarga yetib, keyingi yillarda biroz kamaygan. Bu asosan foiz stavkalarining oshishi va

Mintaqa	2021 (mlrd \$)	2022 (mlrd \$)	2023 (mlrd \$)	Yetakchi yo‘nalish
Shimoliy Amerika	108.2	86.4	78.3	Neo-banklar, WealthTech
Osiyo Tinch okeani	72.4	64.1	59.7	Raqamli to‘lovlar
Evropa	46.8	37.3	32.5	Open Banking, RegTech
Lotin Amerikasi	19.6	15.3	13.1	Kreditlash
Markaziy Osiyo va MDH	3.4	4.1	5.2	Mobil to‘lovlar
<b>JAMI</b>	<b>250.4</b>	<b>207.2</b>	<b>188.8</b>	-

umumiy iqtisodiy noaniqliklar bilan bog‘liq.

### 3-Jadval.

#### Mintaqalar bo‘yicha fintexga sarmoyalar (mlrd \$).

3-jadval ko‘rsatishicha, Markaziy Osiyo va MDH mintaqasi hissasi nisbatan kichik (2023-yilda 5.2 mlrd dollar) bo‘lsa-da, ushbu ko‘rsatkich o‘sib bormoqda. Bu mintaqada raqamli to‘lovlar va mobil banking asosiy yo‘nalish sifatida ajralib turibdi.

#### O‘zbekistonda fintex rivojlanishi.

O‘zbekiston 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar doirasida raqamli moliya infratuzilmasini jadal rivojlantirmoqda. 2019-yilda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston” strategiyasi va PF-5741-son Farmon raqamli transformatsiyaning huquqiy asosini yaratdi.

### 4-Jadval.

O‘zbekistonda fintex rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari (2020 -2023).<sup>4</sup>

Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2023
Elektron to‘lovlar (mln. ta)	890.4	1,234.6	1,987.3	2,845.1
Mobil banking foydalanuvchilari (mln.)	4.2	6.8	9.4	12.7
Bank kartalarining tarqalishi (%)	48.3	54.7	62.1	71.4
Internet-banking operatsiyalari (mlrd so‘m)	12,400	18,700	27,300	38,900
Fintech startaplari soni	34	47	68	94
Moliyaviy inklyuzivlik darajasi (%)	56.8	61.3	67.4	74.2

## 2-Diagramma.


O‘zbekistonda elektron to‘lovlar hajmining o‘sishi (mln. operatsiya).

Yillar bo‘yicha elektron to‘lovlar soni.<sup>5</sup>

2020 |  890.4 mln

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024) ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024).



4-jadval va 2-diagramma O'zbekistonda elektron to'lovlar soni 2020-yildagi 890.4 million operatsiyadan 2023-yilda 2,845.1 million operatsiyaga yetganini, ya'ni 3.2 baravar o'sganini ko'rsatmoqda. Mobil banking foydalanuvchilari soni 4.2 milliondan 12.7 millionga yetib, 3 barobar ortgan. Moliyaviy inklyuzivlik darajasi esa 56.8%dan 74.2%ga ko'tarilgan.

### **Fintexning an'anaviy moliya tizimiga ta'siri: taqqoslama tahlil.**

Tadqiqot natijalari fintex texnologiyalarining an'anaviy moliyaviy xizmatlar bilan solishtirganda quyidagi asosiy ustunliklarini ko'rsatdi. Fintex to'lov operatsiyalari xarajati an'anaviy banklarga nisbatan 30 -60% kam. Xususan, xalqaro pul o'tkazmalari uchun komissiya 5-7%dan 1-2%gacha tushgan. 24/7 xizmat ko'rsatish, real vaqt rejimidagi to'lovlar (RTP) va oniy kredit qarorlari (2-3 soniya vs an'anaviy 2-7 kun). Fintex xizmatlaridan foydalanish uchun faqat smartfon va internet aloqasi yetarli, bu esa an'anaviy bank infratuzilmasi yetishmaydigan hududlardagi aholini ham qamrab oladi. Sun'iy intellekt va Big Data asosidagi kredit skoring an'anaviy metodlarga nisbatan 40% aniqroq bashorat qilish imkonini beradi (McKinsey, 2024).

### **Xulosa**

Fintex texnologiyalari moliyaviy xizmatlar sektorida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirib, an'anaviy moliya institutlarining raqobatbardoshligiga jiddiy tahdid solmoqda. Global bozor 2028-yilga kelib 698.5 milliard dollarga yetishi bashorat qilinmoqda. Fintex moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish nuqtai nazaridan g'oyat katta salohiyatga ega. O'zbekiston tajribasi bu borada yaqqol misoldir: 2020 -2023-yillar davomida moliyaviy inklyuzivlik darajasi 17.4 foiz punktga oshdi. Fintex sanoatiga sarmoyalar 2021-yilgi rekord ko'rsatkichdan keyingi yillarda biroz qisqargan bo'lsa ham, strukturaviy o'sish tendensiyasi saqlanib qolmoqda. Neo-banklar, blockchain va insurtech kabi segmentlar o'z sur'atlarini saqlab qolmoqda. O'zbekiston fintex bozori jadal sur'atlarda rivojlanmoqda: elektron to'lovlar soni 3.2 baravar, mobil banking foydalanuvchilari esa 3 baravar oshdi. Biroq Markaziy Osiyo mintaqasi uchun tarkibiy muammolar tarmoq infratuzilmasi, raqamli savodxonlik va regulyator tizimning moslashuvchanligi hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda fintex ekotizimini yanada rivojlantirish uchun raqamli infratuzilmani kengaytirish, kiberxavfsizlik standartlarini kuchaytirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, banklar va fintex kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish moliyaviy xizmatlar sifati va ommabopligini oshirishga xizmat qiladi.

Izoh: maqolada keltirilgan statistik ma'lumotlar Markaziy bank, xalqaro tashkilotlar va konsalting kompaniyalari hisobotlari asosida umumlashtirilgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). O'zbekiston moliya bozori monitoringi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-iyuldagi PF-5741-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". O'zR Qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi.
3. Xolmatov, D., & Ergashev, B. (2023). O'zbekistonda raqamli moliya xizmatlarining rivojlanishi: imkoniyatlar va muammolar. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4(2), 112 -128.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). O'zbekiston moliya bozori monitoringi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
5. Ernst & Young. (2024). Global FinTech Adoption Index 2024. EY Global Publication.
6. McKinsey & Company. (2024). The 2024 McKinsey Global Payments Report. McKinsey & Company.
7. KPMG. (2024). Pulse of Fintech H2 2023: Global Analysis of Investment in Fintech. KPMG International.
8. Bettinger, A. (1972). FINTECH: A series of 40 time-shared models used at manufacturers Hanover Trust. Interfaces, 2(4), 62-63.
9. Arner, D. W., Barberis, J., & Buckley, R. P. (2015). The Evolution of Fintech: A New Post-Crisis Paradigm? Georgetown Journal of International Law, 47(4), 1271-1319.
10. Statista. (2025). Global fintech market size 2019-2028. Statista Research Department.
11. Basel Committee on Banking Supervision. (2018). Sound Practices: Implications of Fintech Developments for Banks and Bank Supervisors. Bank for International Settlements.